

VOYAGA YETMAGAN SHAXSLAR ISHLARINI SUDDA YURITISH TARTIBI

Raximov Nodirbek Mutalliyevich

Namangan Davlat Universiteti

Yuridik fakulteti

o'qituvchisi

Annotatsiya: *ushbu maqolada voyaga yetmaganlar jinoyatlariga doir ishlarni sudda ko'rishning o'ziga xosligi, voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlarini yuritish kattalarning jinoyat ishlarini yuritishdan farqli jihatlari, voyaga yetmaganlarning jinoyatlari to'g'risidagi ishlarni yopiq sud majlisida ko'rish tartibi, voyaga yetmagan shaxs ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlar, shuningdek, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilingan jinoyat ishlari ko'riladigan vaqt va joy haqida ularning ota-onasini, ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarni, vasiylik yoki homiylik organi vakillarini xabardor qilish masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar *voyaga yetmaganlar, voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlarini yuritish, ishni yopiq sud majlisida ko'rish, isbotlash predmeti, ahloqiy qarashlar va qadriyatlar, sudlanuvchini sud majlisi zalidan chiqarib turish, jinoyat ishini sudda ko'rish*

Рахимов Нодирбек Муталлиевич

Учитель Наманганского государственного

университета

юридического

факультета

Аннотация: *в данной статье рассмотрены особенности рассмотрения дел о преступлениях несовершеннолетних в суде, аспекты уголовного судопроизводства по делам несовершеннолетних, отличные от ведения уголовного судопроизводства по делам несовершеннолетних, порядок рассмотрения дел о преступлениях несовершеннолетних в закрытом судебном заседании, обстоятельства, которые могут оказать негативное воздействие на психику несовершеннолетнего, а также обсуждаются вопросы оповещения их родителей, лиц, их заменяющих, представителей органов опеки и попечительства о времени и месте совершения несовершеннолетними уголовных дел*



Ключевые слова: несовершеннолетние, уголовное производство по делам несовершеннолетних, рассмотрение дела в закрытом заседании, предмет доказывания, нравственные взгляды и ценности, удаление подсудимого из зала судебного заседания, рассмотрение уголовного дела в суде.

THE PROCEDURE FOR CONDUCTING CASES OF MINORS IN COURT

Rakhimov Nodirbek Mutallievich
Teacher at Namangan State University
Faculty of Law


Annotation: *this article discusses the features of the consideration of cases of juvenile crimes in court, aspects of criminal proceedings in juvenile cases, different from the conduct of criminal proceedings in juvenile cases, the procedure for considering cases of juvenile crimes in a closed court session, circumstances that may have a negative impact on the psyche of a minor, as well as the issues of notifying their parents, persons replacing them, representatives of guardianship and guardianship authorities about the time and place of commission of criminal cases by minors.*

Key words: *minors, criminal proceedings on juvenile cases, consideration of the case in a closed session, subject of proof, moral views and values, removal of the defendant from the courtroom, consideration of the criminal case in court.*

Voyaga yetmaganlar jinoyatlariga doir ishlarni sudda ko'rishning o'ziga xosligi shundan iboratki, voyaga yetmagan huquqbuzarning o'z ahloqiy qarashlarini va qadriyatlarni qayta ko'rib chiqish, o'z harakatiga to'g'ri baho berish jaryonining boshlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi lozim. Shuning uchun voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlarini yuritish kattalarning jinoyat ishlarini yuritishdan farq qilishi kerak. Shuni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 60 bobi voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish tartibiga bag'ishlangan.

Xususan, voyaga yetmaganlarning jinoyatlari to'g'risidagi ishni yopiq sud majlisida ko'rish tartibi O'zbekiston Respublikasi JPKning 560-moddasida ko'rsatib o'tilgan.





Ushbu Kodeks 19-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan hollarda voyaga yetmaganlarning jinoyatlari to'g'risidagi ish yopiq sud majlisida ko'riladi.

Sudlanuvchini sud zalidan chiqarib turish ham voyaga yetmaganlar jinoyat ishlarini ko'rishning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. JPKning 561-moddasida voyaga yetmagan sudlanuvchini sud majlisi zalidan chiqarib turish tartibi ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra, voyaga yetmagan sudlanuvchining himoyachisi, qonuniy vakili, shuningdek prokurorning fikrini eshitib, voyaga yetmagan shaxsga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan holatlar tekshirilayotganda sud o'z ajrimi bilan uni sud zalidan chiqarib turishga haqli.

Voyaga yetmagan shaxs sud zaliga qaytarilganidan so'ng raislik qiluvchi unga yo'qligida bo'lib o'tgan muhokama mazmunini yetarli hajmda va shaklda ma'lum qiladi va uning yo'qligida so'roq qilingan shaxslarga savol berishi uchun voyaga yetmaganga imkoniyat yaratib beradi.

Qonun mazmuniga ko'ra, voyaga yetmagan shaxsni sud muhokamasining har qanday bosqichida sud zalidan chiqarib turish mumkin. Sudya, prokuror, himoyachi qanchalik malakali bo'lmasin, guvohlar, ekspertlar qanchalik mahorat bilan so'roq qilinmasin, iltimosnomalar, taraflarning nutqlari, guvoh ko'rsatuvlari, ekspert xulosalari voyaga yetmagan shaxsning hali to'la shakllanib ulgurmagan ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.


Voyaga yetmagan shaxs ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlarga a) ota onaning va boshqa shaxslarning sudda o'zini tutishi; b) ularning farzand tarbiyasiga nisbatan munosabati; v) ta'lim muassasalarining faoliyatiga nisbatan salbiy baho berilishi; g) boshqa sudlanuvchilarning jinoiy faoliyati bilan bog'liq holatlar; d) voyaga yetmaganga nisbatan o'tkazilgan maxsus tibbiy va psixologik tadqiqotlarning natijalari kiritilishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni ko'rishda sud tarbiyachi rolini bajarishi, sudlanuvchini turli salbiy ta'sirlardan himoya qilishi va unga adolatli jazo tayinlash orqali keyinchalik qayta jinoyat qilinishini oldini olishi kerak.

Voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlarini ko'rishning tamoyillaridan yana biri, bu ularning shaxsiy hayoti daxlsizligini hurmat qilish, ya'ni ishni yopiq sud majlisida ko'rishdir.

Ishni yopiq sud majlisida ko'rish haqidagi qaror ishni sudda ko'rish uchun tayinlash vaqtida yoki bevosita sud muhokamasi vaqtida qabul qilinishi mumkin. Yopiq sud majlisida ishni ko'rish butun sud muhokamasiga yoki uning bir qismiga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Yopiq sud majlisida ishni ko'rish butun sud





muhokamasiga yoki uning bir qismiga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Olimlar tomonidan voyaga yetmaganlarning jinoyatlarini yopiq sud majlisida ko'rish masalasi turlicha talqin qilinadi.

Jumladan, G.M.Minkovskiyning fikricha, voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni ko'rishda oshloralikning cheklanishi to'g'ri holatdir. Ammo bunday toifadagi ishlarni ko'rishda sud muhokamasi oshkoraligining cheklanishi sudlar tomonidan majburiyat emas, balki huquq sifatida qaralishi lozim. Ishni yopiq sud majlisida ko'rish haqidagi qaror avtomatik ravishda emas, bunga jiddiy asos bo'lganida har tomonlama o'ylab ko'rib chiqarilishi kerak.


N.I.Siriy esa, "voyaga yetmagan sudlanuvchini ishini ochiq sud majlisida ko'rish huquqidan mahrum qilmaslik kerak, shu sababli ham 16 yoshga to'lmagan sudlanuvchi va uning qonuniy vakiliga yopiq sud majlisida qatnashishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasini belgilash huquqini berish kerak. 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarning ishi bo'yicha esa yopiq sud majlisida ko'rishni ularning roziligi bilan amalga oshirish kerak", degan fikrni ilgari suradi.

E.B.Melnikova esa "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni ko'rishga oid xalqaro standartlar sud protsessining mahfiyligi (yopiqligi) printsiptini voyaga yetmaganlarning ajralmas huquqi va sud protsessining himoya qiluvchi printsipti sifatida qaraydi. Shu sababli ham "Pekin qoidalari"ga rioya qiluvchi mamlakatlarda sud jarayonida ommaviy axbarot vositalari vakillarining qatnashishi man qilinishi, sud zalida faqat ota onalar yoki boshqa shaxslar, zarur hollarda sudning ajrimiga ko'ra voyaga yetmaganlar bilan shug'ullanuvchi muassasalar vakillari qatnashishi mumkinligi bilan cheklanishi kerak. Ommaviy axborot vositalarida voyaga yetmagan shaxs va ish holatlari haqidagi ma'lumotlarning oshkor qilinishi ta'qiqlanishi zarur", deb yozadi.

R.S.Xismatuln ham ushbu nuqtai nazarni qo'llab quvvatlagan holda "voyaga yetmagan sudlanuvchi sud zalida ota onalari, qarindoshlari, tanishlar va notanish kishilar oldida, o'ziga notanish holatda hayajonlanishi, o'zini yo'qotib qo'yishi mumkinligini ham yodda tutish lozim. Bu esa uning ko'rsatmalari to'liqligi va ob'ektivligiga ta'sir ko'rsatadi" deb ta'kidlaydi.

Qayd etish lozimki, deyarli barcha mamlakatlarning qonunchiligida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar yopiq sud majlisida ko'riladi, ishda aniqlangan holatlar esa maxfiy xususiyatga ega bo'ladi. Xorijiy mamalakatlarda, xususan, Angliya qonunchiligida sudda ishi ko'rilayotgan voyaga yetmagan shaxsning ismi va sharifi, yashash manzili yoki maktabi manzilini gazetalarda yoritilishi mumkin emasligi to'g'risidagi qoidalar mavjud. Qonun voyaga yetmaganlarning jinoyatlariga oid sud protsessida bolaning shaxsini aniqlaydigan





biror bir ma'lumotni xabar qilishni ta'qiqalaydi. Gazetada ishi sudda ko'rilayotgan bolaning surati ham chop etilishi mumkin emas, bunday talab radio va televideniaga ham tegishlidir.

Mamlakatimizda jinoyat protsessual qonunchiligi voyaga yetmaganlarning jinoyatlari yopiq sud majlisida ko'rilishi va ular haqidagi ma'lumotlarning sir saqlanishi haqidagi qoidalari xalqaro standartlardan farq qiladi. Agar xalqaro standartlarda bunday toifadagi ishlarni yopiq sud majlisida ko'rish shartligi belgilangan bo'lsa, bizning qonunchilikda bu huquq sudlarning ixtiyoriga berilgan. Jumladan, JPKning 19-moddasida 18 yoshga to'lmagan shaxslarning jinoyatlari to'g'risidagi ishlarni, shuningdek, fuqarolarning shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni yoki ularning sha'ni va qadr qimmatini kamsitadigan ma'lumotlarni oshkor oshkor qilmaslik maqsadida jabrlanuvchining, guvohning yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning, xuddi shuningdek ularning oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta'minlash taqozo etgan hollarda boshqa ishlarni ham sud tomonidan ajrim chiqarib, yopiq sud majlisida ko'rishga yo'l qo'yilishi belgilangan.


Shuningdek, ushbu moddada sud hukmlari, ajrimlari, qarorlari barcha hollarda oshkora e'lon qilinishi, sudlov faolitada oshkoralikni kengaytirish uchun zarur hollarda ommaviy axborot vositalari xodimlariga, tegishli jamoat birlashmalari va jamoalarga bo'ladigan sud majlislari to'g'risida xabar berishi, shuningdek sud majlislari bevosita korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda o'tkazilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000 yil 15 sentabrdagi "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarorining 4-bandida Jinoyat-protsessual kodeksining 551 va 562-moddalariga muvofiq sud voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilingan jinoyat ishlari ko'riladigan vaqt va joy haqida ularning ota-onasini, ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarni, vasiylik yoki homiylik organi vakillarini, voyaga yetmaganlar o'qigan yoki ishlagan korxonalar, muassasalar, tashkilotni, voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha shug'ullanuvchi komissiyani, fuqarolarni o'z-o'zini boshqarish organlari vakillarini, zarur bo'lsa boshqa tashkilotlarni ham xabardor qiladi.

Agar voyaga yetmaganning ota-onasi bo'lmasa va u yolg'iz yashayotgan yoxud tegishli ravishda vasiy yoki homiy yetib tayinlanmagan shaxs bilan yashayotgan bo'lsa, sud voyaga yetmaganning qonuniy vakili sifatida vasiylik yoki homiylik organining vakilini chaqirishi zarur.

Yuqorida ko'rsatilgan choralar jamoatchilikni xabardor qilish, voyaga yetmaganlarning qarovsizligi, ular bo'sh vaqtlarining qanday o'tkazayotganligini, maktab, kasb hunar maktabi, litsey, kollejlarda va mahallalarning, voyaga yetmaganlar





ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalarning faoliyatiga ham baho berish, bunday jinoyatlarning oldini olish maqsadida belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <http://www.lex.uz>
2. . O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi. Toshkent. Adolat. 1994 yil,
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarori. 2000 yil 15 sentabr, 21 son
4. Alohida toifadagi jinoyat ishlarini yuritish va ularni takomillashtirish muammolari. Toshkent. "Yangi asr avlodi". 2012 yil
5. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat protsessual kodeksi. 2001 y. N 174-FZ

